



**DAVLAT XIZMATI REGLAMENTI**  
(O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi  
Fuqaro aviatsiyasi agentligi)

### 1. Xizmat tavsifi (pasport)

#### 1.1. Xizmat nomi

Havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha tashkilotni sertifikatlash

#### 1.2. Xizmat natijasi

Havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha tashkilot Sertifikatini berish

Havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish tashkilotiga sertifikatini berish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 31-dekabrdagi 354-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish tashkilotiga sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi nizomi"da (O'zR AQ-145) o'rnatilgan.

#### 1.3. Xizmatni ko'rsatuvchi organlar va blankalar olish manzili

O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Fuqaro aviatsiyasi agentligi ("O'zaviatsiya" agentligi), Havo kemalarining uchishga yaroqliligi bo'lmi (HKUYaB), "O'zaviatsiya" agentlikning rasmiy veb-sayti [www.uzcaa.uz](http://www.uzcaa.uz)

#### 1.4. Huquqiy asoslar

1. O'zbekiston Respublikasi Havo kodeksining 37<sup>1</sup>-modda
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 31-dekabrdagi 354-sonli "Havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish tashkilotiga sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida" qarori bilan tasdiqlangan.

#### 1.5. Xizmatdan foydalanuvchilar

Xizmatdan foydalanuvchilar yuridik shaxs bo'lishi mumkin.

Yuridik shaxs (Tashkilot) kuybdagilar sifatida ishlarni olib borishi mumkin:

- a) havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish asosiy ish faoliyati bo'lgan, mustaqil tashkilot;
- b) havo kemasining ekspluatantning kemalariga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ixtisoslashtirilgan tarkibiy bo'linma, aviakompaniya, aeroport, asosiy ish faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni bajargan havo kemalarini ishlab chiqarish yoki ta'mirlash zavodi.

#### 1.6. So'rov berish muddati

O'rnatilmagan

## **1.7. So'rov berish muddatlariga rioya etmaslik oqibatlari ko'rsatilsin**

Taalluqli emas

## **1.8. Ijro muddati**

"Havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish tashkilotiga sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi nizomi (O'zR AQ-145)"ga muvofiq arizani ko'rib chiqish muddati 2 (ikki) oyni tashkil etadi. Arizaning amal qilish muddati 3 (uch) oy.

## **1.9. Qabul qilinganligini tasdiqlash muddati**

Taalluqli emas

## **2. Xizmatdan foydalanuvchilariga ma'lumotlarni taqdim etish**

### **2.1. Ma'lumotlarning tarkibi va hajmi**

Havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish tashkilotiga sertifikatini berish tartibi to'g'risida ma'lumotlarni murojaat qilgan har qanday shaxsga taqdim etish, shu jumladan "O'zaviatsiya" agentlikning rasmiy veb-saytidan [www.uzcaa.uz](http://www.uzcaa.uz) zarur bo'lgan hujjatlarni yuklab olish imkoniyati bilan.

### **2.2. Ma'lumotlarni keng taqdim etish**

Havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish tashkilotiga sertifikatini berish tartibi to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etishi "O'zaviatsiya" agentlikning rasmiy veb-saytidan [www.uzcaa.uz](http://www.uzcaa.uz) amalga oshiriladi.

### **2.3. So'rovga asosan ma'lumotlarni taqdim etish**

Havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish tashkilotiga sertifikatini berish tartibi to'g'risida ma'lumotlarni og'zaki ravishda 9-00 dan 18-00 gacha taqdim etishi: 78-120-00-62 yoki 78-120-00-63 sonli telefon raqamlari orqali;  
Yozma ravishdagi so'rvonmalarni kecha-kunduz 71-254-14-82 sonli faks raqami orqali qabul qilish, yozma ravishdagi so'rvonmalarni 9-00 dan 18-00 gacha "O'zaviatsiya" agentlikning devonxonasi orqali qabul qilish va berish;  
Yozma ravishdagi so'rvonmalarni kecha-kunduz qabul qilish: caa@uzcaa.uz yoki technique@uzcaa.uz elektron pochtasi orqali.

## **2.4. Xizmatni ko'rsatuvchining manzilida ma'lumotlarni taqdim etish**

"O'zaviatsiya" agentlikning manzili: 100015, Toshkent shahri, Nukus ko'chasi 73-b.  
Mo'ljal – Mirobod bozori ro'parasida.

## **2.5. Foydalilaniladigan xujjalalar blankalari (shakllari)**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 31-dekabrdagi 354-sonli "Havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish tashkilotiga sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida" qarori bilan tasdiqlangan "Havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish tashkilotiga sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi nizomi"da Havo kemalariga texnik xizmat kursatish tashkilot sertifikati va arizaning blankalari belgilangan.

### **3. Xizmat ko'rsatish**

#### **3.1. Ish vaqtি**

“O‘zaviatsiya” agentlikning ish vaqtি - har kuni soat 9:00 dan 18:00 gacha, shanba, yakshanba va bayram kunlaridan tashqari.

#### **3.2. Kutish shartlari**

Taalluqli emas

### **4. Xizmat ko'rsatish jarayoni**

#### **4.1. Zarur bo'lgan xujjatlar**

- a) Havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha tashkilot Sertifikatini olish uchun Ariza;
- b) Tashkilot faoliyati bo'yicha qo'llanma;
- d) Tashkilot sifati bo'yicha qo'llanma.

#### **4.2. Pullik xizmatlar**

Xizmat bepul

#### **4.3. Davlat xizmati ko'rsatish bosqichlari**

“O‘zaviatsiya” agentlikning rasmiy veb-saytida [www.uzcaa.uz](http://www.uzcaa.uz) bosqichma-bosqich “Bosh sahifa - Normativ-huquqiy aktlar - O‘zbekiston Respublikasi fuqaro va eksperimental aviaciyasi normativ-xuquqiy aktlar – 7- bo‘lim- O‘zR AQ-145” “Havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish tashkilotiga sertifikatini berish tartibi to‘g’risidagi nizomi”ga bosing. Nizomda quyidagi bosqichlari belgilangan:

- a) ro‘yxat bo'yicha xujatlarni qabul qilish (“Havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish tashkilotiga sertifikatini berish tartibi to‘g’risidagi nizomi”ga (АП РУз-145) 1-ilovaga muvofiq rasmiylashtirilgan ariza va havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish tashkilot sertifikatini berish uchun zarur bo'lgan ilova qilinadigan hujjatlar to‘plamini ularni olingani to‘g’risidagi bildirish xati orqali Arizachiga taqdim etish bilan birga).
- b) “O‘zaviatsiya” agentlikning devonxonasida arizani ro‘yxatdan o’tkazish va ko‘rib chiqish uchun uni HKUYaB berish;
- d) arizani dastlabgi baholash va ariza rad etishi to‘g’risida arizachini yozma ravishda xabardor qilish;
- e) asoslovchi xujatlarni ekrpertiza qilish va aniqlangan kamchiliklar to‘g’risida agar mavjud bo‘lsa arizachini yozma ravishda xabardor qilish;
- f) arizachidan aniqlangan kamchiliklarning bartaraf qilganligi to‘grisida xujatlarni qabul qilish, ular bartaraf qilganligini tekshirish;
- g) tasdiqlangan “Xavo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha tashkilotni tekshiruv dasturi”ga muvofiq, Arizachi Nizomiga 2-ilovada bayon qilingan talablarga muvofiqligiga inspeksiya tekshiruvni o’tkazish;
- h) inspeksiya tekshirish natijalari bo'yicha aniqlangan kamchiliklarni ko'rsatilgan holda hisobotni rasmiylashtirish;
- i) tekshirish paytida aniqlangan kamchiliklarning bartaraf qilish bo'yicha arizachidan xujatlarni va tadbirlar rejasini qabul qilish;
- j) inspeksiya tekshirish natijalari bo'yicha sertifikatini berishni yoki berishni rad etish to‘g’risidagi qarori bilan xulosani rasmiylashtirish.

#### **4.4. Davlat xizmati ko'rsatishning ichki idoraviy jarayonlari**

“O‘zaviatsiya” agentlikning devonxonasi orqali arizani qabul qilish – “O‘zaviatsiya” agentligi direktori imzosini qo‘yish uchun arizani berish – “O‘zaviatsiya” agentlikning HKUYaB arizani berish – “Havo kemalariga texnik xizmat ko‘rsatish tashkilotiga sertifikatini berish tartibi to‘g‘risidagi nizomi”ga muvofiq arizani qo‘rib chikish – arizachiga sertifikatini berishni yoki berishni rad etish to‘g‘risida yozma ravishda xabardor qilish.

#### **4.5. Rad etish asoslari**

Havo kemalariga texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha tashkilotiga Sertifikatini berishni rad etilish asoslari quyidagi holatlarda bo‘lishi mumkin:

- a) agar arizada ko‘rsatilgan ma’lumotlar Nizom talablariga javob bermasa yoki noto‘g‘ri yoki ishonchsiz ma’lumotlar mavjud bo‘lsa yoki zarur bo‘lgan xujjalarning butun to‘plami arizaga ilova qilinmagan bo‘lsa;
- b) asoslovchi xujjalalar to‘plamini baholashda va ekspertiza paytida aniqlangan kamchiliklar va nomuvofiqligini Arizachi tomonidan o‘z vaqtida bartaraf qilmaganda;
- c) agar Arizachi ruxsat etuvchi talablar va shartlarga muvofiq bo‘lmasa.

### **5. Sifatni ta’minlash**

#### **5.1. Sifatning parametrlari**

Taalluqli emas.

Xizmatdan foydalanuvchilarining keng doirasi uchun havo kemalariga texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha tashkilot sertifikatini berish bo‘yicha xizmat ommaviy hisoblanmaydi (ma’lumot uchun: bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida Havo kemalariga texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha Sertifikatining 6 egasi mavjud)

#### **5.2. Sifatsiz ko‘rsatilgan xizmatdan shikoyat qilish**

Havo kemalariga texnik xizmat ko‘rsatish tashkilotiga sertifikatini berish tartibi to‘g‘risidagi nizomiga movofiq, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xizmatdan foydalanuvchi Sertifikatini berishni rad etilish to‘g‘risidagi xabarnomasi, shuningdek «O‘zaviasiya» Agentlikning mansabdar shaxsining xatti-harakatlari (xarakatsizligi) yuzasidan qo‘ydagilar orqali shikoyat qilishi mumkin.

- shaxsiy murojaat;
- yozma ravishda;
- elektron pochta.

**Davlat xizmatini ko'rsatish sxemasi**  
(havo kemalariga texnik xizmat ko'rsatish  
bo'yicha tashkiloti Sertifikatini berish)

